



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

XORAZM ADABIY MUHITIDAGI TAZKIRALARDA MUHAMMAD YUSUF BAYONIY HAYOTI VA IJODI

Do'stova Surayyo Savronovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Dotsent (PhD)

Annotatsiya

Muhammad Yusuf Bayoniy o'zining asarlari va tarjimalari bilan o'zbek adabiyotiga munosib hissa qo'shgan. Muhammad Yusuf Bayoniy devon tuzgan, uning qo'lyozma nusxalari O'zbekistonning bir necha kutubxona fondlarida mavjud. Devonning qo'lyozma nusxalarining bir nechta Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Ushbu maqolada Bayoniy hayoti va ijodining tazkiralarda qay tarzda yoritilganligi, shoirning vafoti yili bilan bog'liq jarayonlarlardagi ma'lumotlarning ishonchlilikligi, ijodidagi asarlari, devon tuzgan yoki tuzmaganligi, devonining bizgacha yetib kelgan yoki kelmaganligi, she'rlar va asarlar yozishdan tashqari yana nima ish bilan shug'ullanganligi haqida ma'lumotlar beriladi, aniqliklar kiritiladi va xulosalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: devon, manba, kotib, nusxa, fond, g'azal, masnaviy, asar, xat, adabiyot, she'r, varaq, muallif.

ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСТВО МУХАММАДА ЮСУФА БАЯНИ В ТАЗКИРАХ ХОРЕЗМСКОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЫ

Дустова Сурайё Савроновна

Джизакский государственный педагогический университет,
доцент(PhD)

Аннотация

Мухаммад Юсуф Баяни внёс достойный вклад в узбекскую литературу своими произведениями и переводами. Мухаммад Юсуф Баяни составил диван, рукописные экземпляры которого хранятся в фондах нескольких библиотек Узбекистана. Несколько рукописных списков дивана находятся в рукописном фонде Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни. В данной статье рассматривается, каким образом жизнь и творчество Баяни отражены в тазкирах, анализируется достоверность сведений, связанных с годом смерти поэта, уточняются данные о его произведениях, о том, составлял ли он диван и дошёл ли этот диван до нашего времени, а также приводится информация о других видах деятельности поэта помимо написания стихов и произведений. На основе анализа делаются выводы и вносятся уточнения.

Ключевые слова: диван, источник, переписчик, список, фонд, газель, маснави, произведение, письмо, литература, стих, лист, автор.

THE LIFE AND CREATIVE WORK OF MUHAMMAD YUSUF BAYANI IN TAZKIRAS OF THE KHOREZM LITERARY MILIEU

Dustova Surayyo Savronovna

Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor, (PhD)

Abstract

Muhammad Yusuf Bayani made a significant contribution to Uzbek literature through his literary works and translations. Muhammad Yusuf Bayani compiled a divan, manuscript copies of which are preserved in the collections of several libraries in Uzbekistan. Several manuscript copies of the divan are kept in the manuscript fund of the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies. This article examines how Bayani's life and creative activity are reflected in tazkiras, analyzes the reliability of information related to the year of the poet's death, clarifies data concerning his works, whether he compiled a divan and whether it has survived to the present day, and provides information about his other activities beyond writing poems and literary works. Clarifications are made and conclusions are drawn based on the analysis.

Keywords: divan, source, scribe, manuscript copy, fund, ghazal, masnavi, work, letter, literature, poem, folio, author.

Xiva adabiy muhitida yashab ijod etgan Muhammad Yusuf Bayoniy o'zining asarlari bilan o'zbek adabiyotiga munosib hissa qo'shgan. Uning shoir, adabiyotchi, tarixchi sifatida yaratgan ijodiy merosi va tarjimalari Xiva adabiy muhitini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Muhammad Yusuf Bayoniyning hayoti va ijodi haqida Xorazm adabiy muhitiga doir quyidagi tazkiralarda ma'lumotlar berilgan:

- a) "Tabibiyning "Majmuayi si shuaro"yi payravi Feruzshohiy" asari;
- b) Bobojon Tarroh Xodimning "Xorazm navozandalari" asari;
- c) Hasanmurod Laffasiyning "Tazkirayi shuaro" asari.

Tabibiyning "Majmuayi si shuaro"yi payravi Feruzshohiy" tazkirasi Feruz tashabbusi bilan 1908-1909 yillarda yaratilgan. 29 toshbosma nusxa 1640 betdan iborat, 11-betidan Feruzning "Zihi bordur zuhuringg'a azal birla abad paydo..." radifli g'azali berilgan, so'ng boshqa shoirlarning payrav g'azallari bilan asar davom etgan. "Tazkira debocha, g'azallarni o'z ichiga oluvchi asosiy qism va xotimadan iborat. Asar debochasi, shoirlar haqidagi ma'lumotlar hamda asar xotimasi she'riy tarzda berilgan bo'lib, masnaviy yo'lida qofiyalangan. Tazkirada Feruzning 101 g'azali va ularga bitilgan payravlar jamlangan bo'lib, jami 3331 g'azalni tashkil etadi. Barcha namunalar to'liq berilgan".

Bobojon Tarroh-Xodimning "Xorazm shoir va navozandalari" asari 1965-1967 yillar oralig'ida yozilgan bo'lib, unda 31 nafar saroy shoirlari haqida ma'lumotlar berilgan. Asarning birinchi qo'lyozma nusxasi shoirning nevarasi Anbara Otamurodova qo'lida saqlanadi. Bu asar 2011 yil nashr qilindi va uning so'z boshida Ismoil Bekjonov Bobojon Tarroh Xodimning "Xorazm shoir va navozandalari" asari haqida, «muallifning qiz nevarasi adabiyotshunos va keksa jurnalist Anbara Otamurodovanning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Asarning matni 20x30 o'lchamdagi ikkita daftarga joylashgan bo'lib, arab alifbosida goh to'taki (yashil) va goh qora siyohda Xodimning o'z qo'li bilan yozilgan. Ayrim o'rinlarda Xodim tuzatishlari mavjud. Bu xususda: "...o'z xotiralarini kelgusi avlodga yozib qoldirib, Feruzshoh vujudga keltirgan adabiy muhitning asl qiyofasini abadiylashtirish va shu bahonada o'z yuragidagi boshqa gaplarni ham aytib qolish»ni maqsad qilgan"», deb yozgan. Bu asarning yana bir nusxasini Davlatyor Rahim 1994 yil "Xorazm navozandalari" nomi bilan nashr qilgan.

Hasanmurod Laffasiyning "Tazkirayi shuaro" asari O'zRFA Sharqshunoslik institutini qo'lyozmalar fondida 9494, 12561, 11499 raqamli, O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida 213 raqamli qo'lyozma nusxalari saqlanadi. Ularning ichida 12561 raqamli qo'lyozmada ma'lumotlar ko'proq berilgan, bu bilan Laffasiy

ushbu qo'lyozmaning yanada mukammalroq bo'lishini va tazkirani o'qiyotgan o'quvchi shoir haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlagan. Laffasiy tazkirasida 58 nafar shoir haqida ma'lumot, ularning ijodidan namuna she'rlar va har bir shoir uchun atab yozilgan masnaviylar keltirilgan.

Ahmadjon Tabibiy o'zining "Majmuayi si shuaroyi payravi Feruzshohiy" tazkirasida Muhammad Rahimxon II- Feruzning g'azallari va bu g'azallarga shoirlarning yozgan tatabbu'lari berilgan. Har bir shoirning g'azalini berishdan avval shoir haqida masnaviy bergan va bu masnaviylarda shoirning kim ekanligi, xulq-atvori, fazilatlari aytib o'tilgan. Muhammad Yusuf Bayoniy haqida ushbu asarda quyidagilarni o'qiymiz:

Bayoniyki erur bek oliy nasab,
Oning ko'nglidur koni halimu adab,
Dedi bu g'azal hamul pok yor,
Ki kelmishdurur asru diqqat shi'or
172b varaqda Tabibiy yana Bayoniy haqida shunday deydi:

Bayoniyki ko'pdur kamolot onga,
Muhammad Yusufbekdur ot onga,
Suxan mehridin ko'ngul ravshan erur,
Dog'i bu g'azaldin mehri hubon erur

Bayoniy to'g'risida Bobojon Tarroh Xodim o'zining "Xorazm shoir va navozandalari" asarida shunday fikrlarni bildiradi: "shoirning ismi Muhammad Yusufbek, otasining ismi Bobojonbek degan kishi bo'lg'on. Muhammad Yusufbekning ota-bobolari podshohlik qilg'oni uchun bek atolg'on. Shu sababli Muhammad Bayoniyning ijtimoiy kelib chiqishi podshohzoda oilasida tug'ulg'on desa mumkin". Ushbu asardagi ma'lumotlar tazkira muallifi tomonidan "to'g'ri javob berildi", deb ta'kidlab aytib o'tilgan. Hasanmurod Laffasiy esa tazkirani "iqtidori yetkancha Xevada o'tkan shoirlarning ba'zi bir qardoshlari va yaqin kishilarning yordamlari bilan hamda Xorazm tarixshunoslarining ma'lumotlarig'a suyanib," yozganligini bayon qilgani holda bizga nazmda barakali ijod qilgan ijodkorlar bilan alohida tanishtirar ekan, 26-tartib raqamida Bayoniyga oid ma'lumotlarni keltirishdan oldin quyidagi masnaviyni keltiradi:

Bayoniy nasabda Eltuzarxong'a borur,
Ki, ismi Yusufbek nomdor erur,
Itoat aylabon shoh Feruzg'a,
Davom xizmatidur afruzg'a.
Jahon ta'rixidin ogoh erur,
Davomat-i ta'rix u yor erur .

Masnaviydan so'ng "Bayoniykim Muhammad Yusufbek ahvoloti" deb sarlavha qo'yilib shoir haqida "Bayoniykim, Muhammad Yusufbek bin Bobojonbek bin Allohberdi to'ra bin Eltuzarxon turur", deya uning qaysi bobosi podshoh bo'lganligi haqida aniqroq ma'lumot bergan.

Muhammad Yusuf Bayoniyning fe'l-atvori, fazilatlari, odatlari, yashash tarzi haqida Ahmad Tabibiy tazkirasida quyidagicha berilgan:

Bayoniyki bor bek oliy nasab,
Nasabdin onga dog'i a'lo hasab,
Bu ash'orni demish ul nekzod
Shahanshah so'ziga qilib inqiyot

Baytdagi "a'lo hasab" va "ul nekzod" so'zlari uning obro' va insonlar orasida hurmatga o'zining mehnati bilan erishganligini hamda yaxshi farzand bo'lganligini anglatadi.

Bobojon Tarroh Xodim esa asarida shunday fikrlarni bildiradi: "U ko'rinishidan

uzun bo'yli, xushbichim, sariq soqol, kambag'al odam erdi. Shunday bo'lsa-da, har bir kuni mehmonsiz o'tmas erdi. Kiyimlarini ozoda tutar, so'zlagan vaqtida ovozi goh yo'g'on, goh ingichka tortar erdi. Xalq orasida, ovozingiz Yusufbeknikiga o'xshar ekan, degan gap yurar erdi. O'zi o'ta ketgan saxiy, suhbat ma'noli odam bo'lib, so'zlashib o'tirganda yonidan ketmasam, derding kishi. Odatlari ham yaxshi, shirinso'z kishi erdi". Laffasiy tazkirasida uning fe'l-atvori: "Bayoniy yoshlig'din bir xiyli ziyrak farosatlig' bo'lub, akasi Yaxshimurodbekdin tib ilmin ta'lim olib, anchalig' ma'lumotli bo'ladur", deyiladi. "Bayoniy ajab shirinmaqol, to'tisuxandon bo'lub, g'arib dilnavoz erdi. Ammo, Bayoniyning o'zi katta oila, katta ro'zg'or oilalig' qashshoq bo'lushig'a ham qaramay, doimiy g'arib-miskinlar uchun dasturxon ochuq erdi", deb berilgan.

Bayoniy she'riyatga bo'lgan muhabbati tufayli she'rlar yozgani va devon tuzganligi haqidagi ma'lumotlar Ahmadjon Tabibiy tazkirasida quyidagicha e'tirof etiladi:

Bayoniy hamma fandin ogoh erur,
G'azalda vali, pir va shoh erur,
Bu abyot ul boxabardindurur,
Hamul ilm ila bahravardindurur .
Bayoniyki ul donish ogoh erur,
G'azal ahliga murshid roh erur,
Budur oning ash'oridin bir fiyq,
Ki qilmish o'ziga tatabbu' tariq .
Bayoniyki bor shoiri dilpisand,
Shahanshahning ehsonidin bahramand ,
Muhammad Yusufbekdur nom onga,
G'azalda yetar haqdin ilhom onga,
Desang kim kajravi fazlin oning agar,
Bu abyot ila yetkururman xabar .

Bobojon Tarroh Xodimning "Xorazm novozandalari"da "Yusufbek mansabdor bo'lg'on emas, qo'lining kuchi bilan kun kechirgan, xolos. U shoirlik bilan shug'ullana boshlagan. Ilmli odam bo'lgani uchun ham Muhammad Rahimxon II she'riga havaskor bo'lishi bilan birga Ogahiy, Komil Xorazmiyning she'riy kitoblarini o'qib ko'rib shoir bo'lg'on", deyiladi. "Muhammad Yusufbekning ilmiy darajasi nihoyatda yuksak edi. Maktab, madrasa ta'limotidan tashqari Xorazm olimlaridan ko'p o'rgandi. Ko'p kitoblarni tarjima qildi. Shoirlikda birinchi o'rinda turadi" deb yozadi "Xorazm shoir va navozandalari"da. Shu asarning 63- betida "Yusufbek ilmli bolg'ondan keyin Muhammad Rahimxon Ikkinchi she'r ijodig'a havaskorligi hammaga ma'lum bo'l g'oni uchun Muhammad Rahim Ikkinchiga yaqin bo'lmoq maqsadida shoir bo'ldi. Boshlab aytg'on she'rini birinchi sekrator Tolib mahzumg'a berdi. Tolib mahzum kiritib, Muhammad Rahimxon Ikkinchiga berdi. Muhammad Rahimxon Ikkinchi o'zi shoir bo'lg'ondan keyin qofiya, baznlarini tekshirib ko'rib, xohlab shoirliqg'a ruxsat etdi. Keyin Muhammad Rahimxon Ikkinchi tomonidan buyruq berildi. Har haftada bir g'azal aytsun, degan bo'yuncha, men Bobojon Tarroh -Xodim borib, Yusufbek Bayoniyning aytg'on g'azallarini olib kelib Tolib mahzumg'a berib, Tolib mahzum kiritib, Muhammad Rahimxon Ikkinchiga taqdim qilar erdi", deyiladi. "Tazkirayi shuaro"da "Muhammad Yusufbek xon farmonig'a muvofiq o'zig'a Bayoniy taxallus etib, anchalig' adabiyotlar yozib, Bayoniy ismida devon ham ta'lif etadur", deyiladi. Darhaqiqat, uning devonining qo'lyozmalari O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy qo'lyozmalari fondida 1120, 7106, 6666, 7082 raqamlar ostida saqlanadi.

Bayoniy arab va fors tillarini mukammal bilganligi sababli, arab va fors tillarida

she'rlar yozgan, shu bilan birga bu tillarfdagi asarlarni tarjima ham qilgan. Buni tazkiralardagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. "Xorazm navozandalari"da " Bayoniy shu qadar ilmi bo'lg'on edi. Shu ilmi orqali Muhammad Paximxon Ikkinchiga ham yaqin bo'lub, Muhammad Rahim Ikkinchi bir necha forsiy kitoblarni turkiycha tarjima qildirdi" , deb berilsa, "Tazkirayi shuaro" asarida "Muhammad Yusufbek forsiy va ham arabiy lug'at lisonlarig'a oshno bo'lg'onidek har bir lug'atlig' kitoblarni ona til kabi o'qub yozur erdi. Feruz Muhammad Rahimxon farmoyishi bilan bir necha forsiy, arabiy lug'at ta'rixlarni tarjima qilib, "Shajarayi Xorazmshohiy" isminda bir ta'rix ham ta'lif qilib, Muhammad Rahimxong'a taqdim etib, maqbul-i tab' bo'lg'onidin Feruz Muhammad Rahimxon she'r mashqin ham farmon etadur" . Ahmadjon Tabibiyning tazkirasida quyidagicha yozilgan:

Piri nazm elining Bayoniy erur,
Suxan ahlining nuqtadoni erur,
Bu ash'or oning zodayi tab'idur,
Bu guftor omada tab'i erur .

Bayoniy o'z zamonasining o'tkir so'z shoiri bo'lishi bilan birga musiqaga ham qiziqqanligi haqida Tabibiy tazkirasida biror ma'lumot yozib qoldirmagan, ammo "Xorazm navozandalari"da "Bayoniy olti yarim maqom sozni to'liq bilar edi. Xeva olimlari, Yusufbekning joyiga borib soz qildirib kelimiz deb, uning uyiga kelib, ziyofat yeb, soz qilib ketar edilar. Tanbur, g'ijjak, daryo (doira), bulomon, dutor kabi soz asboblari to'liq bor edi. O'zi cherta olar, lekin ayta bilmas edi" deyiladi. Bu haqda "Tazkirayi shuaro"da "Bayoniy setor, tanbur, g'irjak musiqiysig'a ham yaxshi oshno bo'lg'onidek, shaxmat, satranj o'yinig'a ham bir xiyli mahoratlig' bo'lub erdi" , deb yozilgan.

Bayoniy yaxshi xattot ham bo'lganligi haqida "Tazkirayi shuaro"da, "xatt-i kufiy, xatt-i suls, xatt-i rayhoni, xatt-i shikast, xatt-i hindiylarni ham yaxshi o'qub yozib bilur erdi" , deydi.

Muhammad Yusuf Bayoniy juda oddiy yashagan. Tabibiy tazkirasidagi bir masnaviyda Bayoniyni oddiy yashahi, ammo quyosh singari issiq yuzli ekanligini aytib o'tadi:

Bayoniy bayonin qilurman nechuk ,
Ki yuzi quyosh bordurur bilgulik,
Bu abyot oning keldi abyotidin,
Ki bordur guvohi kamolotidin .

"Xorazm shoir va navozandalari"da esa Bayoniy "o'zining ilmi orqasida kun ko'rgan. O'zida bir boylik ham oz bo'lg'on. O'zi esa juda kambag'al edi. Lekin Yusufbek xizmati Muhammad Rahim Ikkinchiga yoqib, Yusufbekni oltin qilich bilan mukofotladi. Ham hamma amaldorlar qatorida manga salomg'a kelsun, kelsun deb buyruq berdi. Bu buyruq marhamat qilish degan maqomda turadi. Xalq bilan aloqasi juda yaxshi edi. Xalq Yusufbekni xurmat qilur erdi. Xalq ichinda obro'i katta erdi. Demak, o'zi ham xushmuomalali odam edi" . "Tazkirayi shuaro"da "Bayoniy ajab shirinmaqol, to'tisuxandon bo'lub, g'arib dilnavoz erdi. Ammo, Bayoniyning o'zi katta oila, katta ro'zg'or oilalig' qashshoq bo'lushig'a ham qaramay, doimiy g'arib-miskinlar uchun dasturxon ochuq erdi" , deb berilgan.

Tazkiralarda e'tirof etilgan Muhammad Yusuf Bayoniy "ijodini har tomonlama o'rganish, u haqda to'laqonli, mukammal tadqiqotlar yaratish fursati yetdi" . Bayoniyning hayoti va ijodi hamda asarlarini o'rganish o'zbek adabiyotida muhim ish sanaladi. Uning asarlari XIX asr hamda XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitidagi asosiy manbalar sifatida adabiyotshunoslik, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikda ilmiy tadqiq etilishi lozim bo'lgan asarlardan ekanligi bilan ahamiyatlidir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дўстова С. Баёний девонининг 1120 рақамли қўлёзмаси. Туркий халқлар филологиясида фундаментал тадқиқотлар ва инновацион технологиялар номли халқаро илмий амалий конференция. Нукус 2022. Нукус давлат педагогика институти. 79- бет.
2. Жумахўжа Н. ва Адизова И.Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур. –Т.: Ўзбекистон, 1995. –Б. 8, 98-99.
3. Комил Аваз. Олис оҳанглар. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1997. –Б.36.
4. Лаффасий. Хива шоир ва адабиётчиларининг таржимаи ҳоллари. ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди 9494 рақамли қўлёзма 2а,в, 14а варақлар.
5. Лаффасий. Тазкираи шуаро. ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди 12561 рақамли қўлёзма 39в варақ.
6. Лаффасий. Тазкираи шуаро. Урганч. Хоразм. 1992.-Б.41
7. Лаффасий. Хива шоир ва адабиётчиларининг таржимаи ҳоллари. ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди 11499 рақамли қўлёзма 10а варақ.
8. Отамуродова А. Абдурахимов О. Маоний арсаи. –Т.: Tafakkur qanoti, 2012. – Б.38.
9. Tabibiy. Majmuai si shuaro'i payravi Feruzshohiy. Абу Райхон Беруний номидаги шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди 1152 raqamli qo'lyoxma 147a varaq
10. ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди 1120 рақамли қўлёзма
11. ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди 7106 рақамли қўлёзма
12. ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди 6666 рақамли қўлёзма
13. ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди 7082 рақамли қўлёзма
14. Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. – Т.: Бадиий адабиёт, 1967. – Б.91
15. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4818
16. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4819
17. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4836
18. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2375